

№4 (16)  
Октябрь-Декабрь  
**20  
21**



ISSN 2181-0567  
ISSN 2181-1830

# IQTISODIYOT: TAHLILLAR VA PROGNOZLAR

**ЭКОНОМИКА:**  
АНАЛИЗЫ И ПРОГНОЗЫ

**ECONOMY:**  
ANALYSIS AND FORECASTS

Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси миллий ривожланишимизнинг янги босқичини бошлаб беради. Биз бундан бўён фаолиятимизни «инсон – жамият – давлат» деган янги тамоил асосида ташкил этамиз.

Шавкат МИРЗИЁЕВ



Журнал Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни кисқартириши вазирлиги билан ҳамкорликда нашр этилмокда

ISSN 2181-0567



9 772 181 056008



## Президент Шавкат Мирзиёевнинг инаугурация маросимида сўзлаган нутқидан:

**2030 йилга** бориб, Ўзбекистон жон бошига ҳисоблагандა, аҳоли даромадлари ўртача кўрсаткичдан юқори бўлган давлатлар қаторидан ўрин эгаллайди. Бунга, аввало, хусусий секторни рағбатлантириш ва унинг улушини ошириш ҳамда тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этиш ҳисобидан эришиш кўзда тутилмоқда. Жумладан, «**хом ашёдан – тайёр маҳсулотгача**» деган тамойил асосида драйвер соҳаларда кластер тизимини ривожлантирамиз.

Иқтисодиётда юқори ўсиш суръатларига эришиш учун, аввало, макроиқтисодий барқарорликни таъминлаб, инфляция даражасини белгиланган **5 фоизгача** пасайтириш чоралари амалга оширилади.

Шунингдек, бюджет ва ташқи қарз барқарорлигини таъминлаш, маҳаллий бюджетларнинг имкониятларини кенгайтиришга биринчи даражали эътибор қаратилади.

Тадбиркорлик фаолиятини янада қўллаб-қувватлаш, солиқ юкини камайтириш, ҳаммага teng бўлган бизнес муҳитини ва зарур инфратузилма яратиш бўйича бошлаган ислоҳотларимизни қатъий давом эттирамиз.

Давлат корхоналарини трансформация қилиш ва хусусийлаштириш жараёнларини тезлаштириш иқтисодиётни ислоҳ этишнинг устувор вазифаларидан бири бўлиб қолади.

Эркин рақобатга асосланган бозорни яратиш ҳисобидан аҳоли ва тадбиркорлар энергия ресурслари билан кафолатли таъминланади.

Аҳоли бандлигинитаъминлаш, ёшлар ва ишсиз фуқароларни давлат ҳисобидан малакали касб-хунарга ўқитиш, оиласвий тадбиркорликни ривожлантириш, эҳтиёжманд аҳолини манзилли қўллаб-қувватлаш орқали **2026 йилгача камбағалликни икки баробар қисқартириш** кўзда тутилмоқда.

Шу билан бирга, ижтимоий ҳимоя соҳасида бошқарув тизими ислоҳ қилиниб, ижтимоий хизматларнинг сифати яхшиланади ва кўлами кенгайтирилади.



ЭКОНОМИКА:  
АНАЛИЗЫ И ПРОГНОЗЫ

ECONOMY:  
ANALYSIS AND FORECASTS

№ 4 (16)  
Октябрь-Декабрь, 2021 йил

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ:

**Ж.Кўчкоров** – Иқтисодий тараққиёт ва камбагалликни қисқартириш вазири, таҳрир ҳайъати раиси

**И.Норқулов** – Иқтисодий тараққиёт ва камбагалликни қисқартириши вазирининг биринчи ўринбосари, таҳрир ҳайъати раиси ўринбосари

**У. Абидхаджаев**, и.ф.д. – Прогнозлаштириш ва макроиктисодий тадқиқотлар институти директори

**З. Халдаров**, PhD – Прогнозлаштириш ва макроиктисодий тадқиқотлар институти директори ўринбосари

**Т.Ахмедов**, и.ф.д., проф. – Прогнозлаштириш ва макроиктисодий тадқиқотлар институти директори ўринбосари – Илмий марказ директори

**Д.Курбанова**, и.ф.н., доц. – Прогнозлаштириш ва макроиктисодий тадқиқотлар институти илмий котиби

**С.Чепель**, и.ф.д. – Прогнозлаштириш ва макроиктисодий тадқиқотлар институти бош илмий ходими

**Н.Расулов**, и.ф.д., доц. – Прогнозлаштириш ва макроиктисодий тадқиқотлар институти лойиха раҳбари

**Д.Каримова**, и.ф.д., проф. – Прогнозлаштириш ва макроиктисодий тадқиқотлар институти лойиха раҳбари

**Р.Хасанов**, и.ф.д., проф. – Прогнозлаштириш ва макроиктисодий тадқиқотлар институти лойиха раҳбари

**Х. Сайдалиев**, и.ф.д. – Прогнозлаштириш ва макроиктисодий тадқиқотлар институти гурӯҳ раҳбари

**Н.Ибрагимова**, PhD., доц. – Прогнозлаштириш ва макроиктисодий тадқиқотлар институти лойиха раҳбари

**Ё.Файзуллаев**, и.ф.н. – Иқтисодий тараққиёт ва камбагалликни қисқартириш вазирлиги бўлим бошлиги

ТАХРИРИЯТ:

Бош муҳаррир – **Т. Аҳмедов**

Масъул муҳаррир – **А. Юлдашев**

Техник муҳаррир – **И. Одашев**

Компьютер графикаси дизайнери – **И. Сайдов**

Нашр учун масъул – **Н. Примов**

Журнал Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2019 йил 29 июндангаги 266/8-сонли қарорига асосан ОАК диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига ва Россия Федерациясининг Илмий иқтибос индекси (РИНЦ) рўйхатига киритилган.

Журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигига 2021 йил 22 апрелда 1043-сонли гувоҳнома бўйича қайта рўйхатга олинган.

Босма ISSN 2181-0567; Электрон ISSN 2181-1830.

Формат 84/60, 1/8, 7,8 б.т.

Чоп этишга 30.12.2021 йилда рухсат этилди.

Журналнинг «Matbuot tarqatuvchisi» АҚ обуна каталогидаги индекси – 1360.

Журнал уч ойда бир марта чоп этилади. Баҳоси келишилган нарҳда.

«Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar» журналидан кўчирраб босиш фақат таҳририятнинг ёзма розилиги билан амалга оширилади. Таҳририят фикри муаллифлар фикрига мос келмаслиги мумкин. Мақоладаги далилларнинг ҳаққонийлигига муаллифлар шахсан масъул ҳисобланади. Тақдим қилинган мақолалар тақриз қилинмайди ва муаллифга қайтарилмайди.

Таҳририят манзили:

100011, Тошкент ш., Навоий қўчаси, 30. Тел.: (+998 71) 244-01-77. E-mail: info@ifmr.uz  
Тарқатиш бўлими телефони: (+998 71) 244-01-77

## Мундарижа / Содержание / Contents

### Макроиктисодиёт ва прогнозлаштириш / Макроэкономика и прогнозирование / Macroeconomics and forecasting

- 4 *Алимназар ИСЛАМКУЛОВ.* Бюджетлараро мутаносибликни таъминлашга замонавий назарий ёндашувлар
- 9 *Нодирбек ТУЛА.* Совершенствование методологии прогнозирования численности населения
- 14 *Жавохирбек ШЕРАЛИЕВ, Элёр СУННАТУЛЛАЕВ.* Макроиктисодий барқарорликни таъминлашда бюджет қоидаларидан фойдаланишнинг хориж тажрибаси

### Саноат, аграр ва худудий иқтисодиёт / Промышленность, сельское хозяйство и региональная экономика / Industry, agriculture and regional economy

- 22 *Равшан АЛИМОВ, Юлдуз АЛИМОВА.* «Зеленое» финансирование как сегмент финансового рынка
- 27 *Дарья ИЛЬИНА.* Реформирование сельского хозяйства в Узбекистане
- 33 *Орынбай НАЗАРБАЕВ.* Иқтисодий стратегияни танлашнинг ўзига хос хусусиятлари
- 37 *Мехри ВОХИДОВА.* Махсус иқтисодий зоналарда кластерларни қўллаш имкониятлари
- 43 *Хадича КАДИРОВА.* Современное состояние и эконометрическое моделирование деятельности акционерных обществ Наманганской области
- 53 *Антон КОСТЮЧЕНКО.* Основные изменения в развитии инновационной деятельности в Республике Узбекистан
- 60 *Аброр ШАРИПОВ.* Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришга қаратилган солиқ сиёсатини такомиллаштириш

### Хизмат кўрсатиши, логистика ва инфратузилма / Сервис, логистика и инфраструктура / Service, logistics and infrastructure

- 66 *Абдулла КАЛАНДАРОВ.* Коронавирус пандемияси шароитида тижорат банкларидағи кредит портфелининг сифати
- 73 *Соҳибмалик ХОМИДОВ.* Ишлаб чиқариш функцияси ёрдамида фармацевтика саноатида техник тараққиёт омилини моделлаштириш

---

**Инвестиция, рақамли ва инновацион технологиялар /**  
**Инвестиции, цифровые и инновационные технологии /**  
**Investment, Digital and Innovative Technologies**

84 *Dostonbek ESHPULATOV.* O'zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiy tizimini shakllantirishda innovatsiyalarni joriy etish masalalari

---

**Ижтимоий масалалар, фан, таълим ва камбағалликни қисқартириш /**  
**Социальные вопросы, наука, образование и сокращение бедности /**  
**Science, education poverty reduction, and Social issues**

89 *Хўяёр ШЕННАЕВ.* Ўзбекистонда камбағалликни қисқартиришда суғурта секторининг имкониятлари

94 *Мухиддин ХАЛИЛОВ.* Камбағалликни бартараф этишда тадбиркорликнинг ижтимоий функциялари

101 *Муқаддас ТУРДИЕВА.* Корхона ходимларининг инновацион фаолиятини мотивациялаш орқали рақобатбардошликни таъминлаш омиллари

105 *Lola KADIROVA.* Oliy ta'lif muassasasi bitiruvchilarining kompetensiyalarini baholashda kvalimetrikali yondashuv

113 *Нилуфар САФАРОВА.* Социальный прогресс и макроэкономические факторы: оценка влияния

119 *Нуриддин ҚОРАБОЕВ.* Ўзбекистон Республикасида норасмий секторга таъсир қилувчи омилларни социологик сўров натижалари асосида баҳолаш

125 *Boboyeva GULNORA.* O'zbekiston Respublikasining intellektual salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari

---

УЎК: 330.354

**Gulnora BOBOYEVA,**  
*Buxoro davlat universiteti*  
*Iqtisodiyot kafedrasи o'qituvchisi,*  
**E-mail:guli.boboyeva@bk.ru**

## **O'zbekiston Respublikasining intellektual salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari**

**Kirish.** Hozirgi kunda har qanday mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurslar mayjudligiga, balki birinchi navbatda, zamonaviy muntazam yangilanib turuvchi texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirishga qodir bo'lgan sifatli inson kapitaliga bog'liq bo'lmoqda. Bunday sifatli inson kapitalisiz mamlakatda ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018-yil 21-sentabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi [1] PF-5544-son farmoni mamlakatimizning bundan buyon innovatsion rivojlanish yo'li va innovatsion iqtisodiyotga o'tishini ko'zda tutadi hamda bu boradagi ustuvor vazifalarni belgilab beradi. Mamlakatning xalqaro maydonagi raqobatbardoshlilik darajasini oshirib, innovatsion jihatdan taraqqiy etishini ta'minlovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish mazkur strategiyaning bosh maqsadi sifatida ko'rsatildi. Biz buyuk allomalarimizdan ilmning foydasi, shaxs va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida yuzlab durdona fikrlarni bilamiz. Lekin ilmga amal qilish qanday bo'lishini dunyoda hech kim sohibqiron Amir Temurdek aniq va o'z tajribasida sinab ko'rib ayta olmagan bo'lsa kerak. Buyuk sohibqiron shunday deydi: "Tajribamda ko'rilmankim, azmi qat'iy, tadbirkor, xushyor, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir" [2].

Mamlakatning inson kapitali har bir fuqaroning intellektual azmi qat'iyligida, intellektual tadbirkorligida, intellektual hushyorligi, intellektual mardligi, shijoatida ham namoyon bo'ladi. Bu har bir kishining nimalarini bilishida, bilimidan foydalananib, qaysi ishlarni qanday sifat bilan bajara olishida, Vatanga sadoqatida ko'rindi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi" [3] deb ta'kidlaganlar. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish uchun esa har bir inson, mehnat jamoasi, jamiyat yangi kompetensiyalarni, yangi kasbiy va ijtimoiy sifatlarni, inson salohiyati xususiyatlarini egallashi, insoniy rivojlanishning yuqoriqoq pog'onasiga o'tishi lozim.


Bugungi kunda mamlakatimiz aholisi soni o'sish tendensiyasiga ega. 2021 yil 1-yanvar holatida aholi soni 34558,91 ming kishini [4] tashkil etdi.

"Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi" [5].

M.Porter, S.Kuznes va boshqa ko'plab taniqli iqtisodchi olimlar fikricha, inson kapitaliga investitsiya kiritishga nisbatan beparvolik mamlakat raqobatbardoshliligin keskin pasaytirib yuborishi mumkin. Inson kapitalining shakllanishida ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatining o'rnini beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti harajatlarining 50 foizdan ko'pi ijtimoiy sohaga yo'naltirilganligi mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan e'tiborni bildiradi.

2020-yilda davlat budgetining xarajatlari (maqsadli jamg'armalarsiz) 143 trln 921 mlrd so'mni [5] tashkil etib, ijtimoiy soha xarajatlari 74 trln 229 mlrd so'm, yoki jami budjet xarajatlarining 51,6 foizini tashkil etdi.

2020 yilda ijtimoiy soha xarajatlari 2019 yilga nisbatan 1,3 baravar oshgan. Fanga ajratilgan xarajatlar 0,823 trln so'mni tashkil etib, jami budget xarajatlarining 0,6 foiziga teng. Ta'lim sohasi uchun xarajatlar 29,96 trln so'mni, yoki jami budget xarajatlarining 20,8 foizi, ijtimoiy soha xarajatlarining esa 40,4 foizini tashkil etdi (1-rasm).



### **1-rasm. O'zbekiston Respublikasida davlat budjetidan ijtimoiy sohaga, jumladan ta'lim va fanga 2018-2020 yillarda qilingan xarajatlar**

**Manba:** *mf.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlansasi*

Ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan xarajatlar hajmi mamlakatimiz YaIM tarkibida 10-12 % ni [6] tashkil etadi. 2021-yil 1-yanvar holatida mamlakatimizda 3-yoshdan 24-yoshgacha bo'lgan aholi 13147.4 mingni [7], ya'ni jami aholining 38 % ni tashkil etadi. Ayni shu 3 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan davrda inson shaxs sifatida shakllanadi va kiritilgan investitsiyalar natijasida o'zida inson kapitalini to'playdi. Inson intellektual salohiyatini shakllantiruvchi makonlar bular maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim

maktablari, o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim muassasalari bo'lib hisoblanadi. Quyidagi jadvalda Respublikamizda faoliyat yuritayotgan ta'lim-tarbiya muassasalarining yillar bo'yicha statistik ko'rsatkichlari keltirilgan.

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, maktabgacha ta'lim muassasalari soni 4 yil ichida 2615 taga yoki 50,9 % ga oshgan.

"Kichik yoshdagagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 4 yil davomida 2 barobar ortib, 60 foizga yetdi. Bog'chalar soni esa 3 barobarga ko'payib, 14 mingdan oshdi" [8].

2020-yildan boshlab, tariximizda ilk bora 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi joriy qilindi. Bunga byudjetdan 130 milliard so'm ajratilib, bu jarayonda xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari ham bevosita ishtirokini kengaytirish uchun shart-sharoitlar yaratildi.

2020-2021 o'quv yilda umumta'lim maktablari soni 10181 taga yetib, ularning soni yildan yilga oshib bormoqda. "Kelgusi yili 30 ta yangi maktab qurish, 320 ta maktabni ta'mirlash va moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida byudjetdan 2 trillion so'm ajratiladi. Kelgusi yilda yurtimizda 10 ta Prezident maktabi, kimyo-biologiya, matematika, axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan 197 ta maktab o'z faoliyatini boshlaydi" [9].

O'zbekistonda kasb-hunar ta'limi tizimi muassasalarini uch toifaga bo'lish taklif etildi va 2020-2021 o'quv yilidan boshlab mutlaqo yangi professional ta'lim tizimi yo'liga qo'yilib, ushu yilda 339 ta kasb-hunar maktabi, 206 ta kollej va 187 ta texnikum faoliyat yuritdi (1-jadval).

### **1-jadval**

#### **Respublikadagi ta'lim-tarbiya muassasalarining soni [10]**

Ta'lim muassasasi turlari	2016-2017	2017-2018	2018-2019	2019-2020	2020-2021	Farqi	O'sish sur'ati
Maktabgacha ta'lim muassasalari	5138	5186	6381	6968	7753	2615	50,9
Umumta'lim maktablari	9719		9774	10090	10181	462	104,8
O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi muassasalari	1566	1556	1537	1117	818	-748	-52,2
Oliy ta'lim muassasalari	70	72	98	119	127	57	181,4

**Manba:** *O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlansasi.*

### Inson kapitalining shakllanishida oliv ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos.

Tarixiy faktlar ham jahon hamjamiyatida ta'limning muhimligini ko'rsatmoqda. F.Ruzvelting Buyuk Depressiya davrida universitetlarni misli ko'rilmagan qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qarori Amerikaga inqirozni yengib o'tishga va zamonaviy ishlab chiqarish va yuqori texnologiyalarni tashkil qilishda global

yetakchilikka erishishga yordam berdi. "Amerika boy, chunki uning universitetlari ko'p" degan ajoyib ibora ham bejizga aytilgan emas.

Bugungi kunda respublikamizda 127 ta oliv ta'lim muassasasi mavjud. So'nngi besh yilda jami 57 ta oliv ta'lim muassasasi va ularning filiallari, xorijiy oliv ta'lim muassasalari tashkil etildi (2-jadval).

**2-jadval**

#### Respublikadagi OTMlар va unda tahsil olayotgan talabalar soni [11]

Ko'rsatkichlar	O'quv yili					O'zgarishi	O'sish sur'ati, %
	2016-2017	2017-2018	2018-2019	2019-2020	2020-2021		
Oliy ta'lim muassasalari soni	70	72	98	119	127	57	181,4
shundan xorijiy oliv ta'lim muassasalari filiallari	7	7	10	18	20	13	285,7
Oliy ta'lim muassasalari talabalar, ming kishi	268,3	297,7	360,2	441,0	571,5	303,2	213,0
<i>Shu jumladan bo`limlarda o`qiydiganlar:</i>							
Kunduzgi, ming kishi	267,9	287,5	313	360,1	441,9	174	
Kechki, ming kishi	-	-	1,2	7,3	11,5	10,3	
Sirtqi, ming kishi	0,4	10,2	46	73,6	118,1	117,7	
Qabul qilingan talabalar, ming kishi	61,2	85,7	114,5	138,1	174,9	113,7	
Bitirgan mutaxassislar, ming kishi	64,1	67,4	70,3	70,8	83,9	19,8	

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlamasi.

2019-2020 – o'quv yilida Respublika oliv ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni 410 ming bakalavriat, 13 ming magistratura talabalarini tashkil etgan. So'nngi uch yilda talabalar soni 1,7 baravarga oshdi. Mamlakatimiz aholisining yildan yilga oliv ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyoji talabi oshib bormoqda.

Shu o'rinda S.Buzrukxanovning "Jamiyat rivojlanib, aholining turmush darajasi oshib borgani sari oliv ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyoj ham o'sib boradi. ... Chunki, aholining ma'lumotlilik darajasi qancha yuqori bo'lsa, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun shuncha keng imkoniyatlar ochiladi" [12] degan fikrlari o'rindadir.

Inson kapitali taraqqiyot omiliga aylangan ayni damda mamlakatimizda ham maktab bitiruvchilarining

oliv ta'limga qamrab olish bo'yicha keng ko'lamli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jadval ma'lumotlaridan oliv ta'lim muassasalari sonining, qabul qilingan va bitiruvchi talabalar sonining oshib borish xarakterda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi paytga qadar O'zbekistonda oliv ta'lim muassasalari qabul kvotasi qamrovi umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga nisbatan 7,0-9,0 % ni tashkil etib kelgan. Holbuki, bu masalan Serbiyada 97,4 %, Yangi Zelandiyada 95,6 %, Rossiya Federatsiyasida 84,2 %, AQSHda 50,9 % va Qozog'istonda 69,2 % ni [13] tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida "Oliy ma'lumot olaman, o'z ustimda ishlab, ilmli bo'laman, degan, yuragida o'ti bor, jo'shqin

yoshlarimizning tahsil olishi uchun hamma qulayliklarni yaratishimiz shart. Shuning uchun mablag' bitiruvchilarini oliy ta'limga bilan qamrab olish darajasini 2020-yilda kamida 25 foizga va kelgusida 50-60 foizga yetkazamiz” [14] degan fikrlarni bildirdilar.

Ta'limga qay darajada rivojlangan bo'lsa, milliy iqtisodiyotda shunga mos kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlar faoliyat ko'rsatadi va shunga mos iqtisodiy o'sishga erishiladi. Ta'limga sohasi iqtisodiy o'sishga erishishning imkoniyati bo'lib hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2018-yilda mamlakatimiz aholisining 25 yosh va undan katta yoshdagagi aholining ta'limga darajasining 16,4 % i oliy ma'lumot, 50,1 % o'rta maxsus kasb-hunar, 33,4 % ini o'rta ma'lumot tashkil etadi.


O'zbekistonda aholi intellektual salohiyatining milliy iqtisodiyot doirasidagi ahamiyati xususida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

Ta'limga tizimi uy xo'jaligiga ta'sir etib, undagi mehnat resurslarining kasbiy salohiyatini shakllantiradi;

- shakllangan mehnat resurslari bozor orqali milliy iqtisodiyotning barcha sohalariga yo'naltiriladi, ular band bo'lganlarning kasbiy tarkibini shakllantiradi, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat ko'rsatadi. Inson kapitali innovatsion iqtisodiyot va rivojlanishning keyingi bosqichi bilimlar iqtisodiyotini shakllantiruvchi va rivojlaniruvchi bosh omil hisoblanadi.

Bu o'rinda hozirgi iqtisodiyotning innovatsiyali rivojlanish bosqichida mehnatga layoqatli aholining barqaror va munosib ish joylari bilan ta'minlanishi inson kapitalining muhim ekanligini ta'kidlash kerak.

Quyidagi diagrammada respublikamizda mavjud korxona va tashkilotlarda yollanib ishlovchi aholi sonining ma'lumot darajasi bo'yicha taqsimlanishi ifodalangan (2-rasm):



**2-rasm. Korxona va tashkilotlarda yollanib ishlovchi aholi sonining ma'lumot darajasi -bo'yicha taqsimlanishi, % larda**

**Manba:** O'zbekistonda ta'limga 2015-2018 yil. Statistik to'plam asosida muallif ishlanmasi

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, yil sayin korxonada faoliyat yurituvchi yollanma xodimlarning oliy ma'lumotlilar darajasi oshib bormoqda. Zero M. Karpenkoning "... oliy ma'lumotli kishining ish unumdarligi oliy ma'lumotsiz kishinikiga qaraganda 15 marta yuqori” [15] fikriga tayangan holda, mamlakatimiz korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati oshmoqda, degan xulosaga kelamiz.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar inson kapitaliga investitsiyalardan olinadigan foyda texnikaga kiritilgan investitsiyalarga nisbatan uch baravar ortiqligini ko'rsatgan. Shu bilan birga xodimlar ta'limga darajasining 10,0% ga ortishi mehnat unumdarligini 8,6% ga ko'paytirishi aniqlangan. Shuningdek, aksiyadorlik kapitalining shu miqdorga ko'payishi mehnat unumdarligini 3,0-4,0 % ga oshirgan.

Mamlakat intellektual salohiyatini oshirishda fidoiy va muqaddas kasb egalari bo'lmish o'qituvchi pedagoglarning o'rni beqiyosdir.

Singapur sobiq bosh vaziri Li Kuan Yu “Qanday qilib ulkan davlatdan ajralib chiqib, mittigina hudud bilan rivojlangan davlatga aylandinglar? Bu “mo'jizani qanday amalga oshirdingiz?” degan savolga “Men Singapurdagi mo'jiza yaratmadim. Men faqat vatanim oldidagi burchimni bajardim, xolos. Davlat budgetini ta'limga yo'naltirdim. Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko'tardim. Davlatdagi “mo'jiza”larni qilgan insonlar – muallimlardir. Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan, kamtar avlodni yetishtirib chiqardilar. Buning uchun ulardan minnatdormiz”, deya javob bergen ekan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda iqtisodiyotimizning uzoq muddatli o'sishini istaydigan bo'lsak, birinchi navbatda inson kapitali va jamiyatimizda o'qituvchilarning hurmatini oshirishga e'tibor qaratishimiz kerak.

Oliy ta'limga muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish – eng muhim masalalardandir. Chunki yoshlarimizga sifatli ta'limga berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishda ularning hissalari beqiyosdir (3-jadval).

**3-jadval**

**OTMlar ilmiy salohiyat ko'rsatkichlari [16]**

Ko'rsatkichlar	O'quv yili			O'zgarishi	O'sish sur'ati, %
	2016 -2017	2017-2018	2018-2019		
Oliy ta'lif muassasalari o'qituvchilari	23961	25107	26664	2703	111.3
Ulardan ilmiy darajaga ega bo'lganlar, nafar	7429	7481	8095	666	109.0
Jami o'qituvchilar sonidagi hissasi, % da	31	29.8	30.4	-0.6	98.1
Ulardan ilmiy unvonga ega bo'lganlar, nafar	5256	5169	5339	83	101,6
Jami o'qituvchilar sonidagi hissasi, % da	22	20.6	20,0	-0.6	98.1

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanchasi

So'nggi yillarda O'zbekistonda o'qituvchilarning dahlsizligi to'liq ta'minlandi, ya'ni ular har qanaqangi byurokratik ishlardan, qog'ozbozliklardan holi bo'lishlari, o'qituvchilik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlari – mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlari, obodonlashtirish kabi ishlardan ozod etildi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lif – tarbiya muassasalarida, shu jumladan oliy ta'lif tizimida ham keng ko'lamli ishlohotlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlohotlarning huquqiy asoslari sifatida bir qator me'yoriy - huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

**Ular:**

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2018 yil 14 avgustdag'i "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3907-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-3864155>

2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" O'RQ-576-sonli qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-4571490>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlohotlarda faol ishtirotkini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3775-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-3765586>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlantish vazirligini tashkil etish to'g'risida" gi PF-5264-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3431985>

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkama-

sining 2019 yil 24 dekabrdagi "Ilm-fan va ta'lif sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi 1030-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-4662181>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizdagi oliy ta'lif tizimini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarilishiga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizdagi oliy ta'lif tizimini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarilishiga asos bo'ldi.

Konsepsiada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lifni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalişlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lifni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lif texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olindi.

Quyida ushbu qabul qilingan konsepsiyaning maqsadli ko'rsatkichlari haqida to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, ayni paytda kredit-modul tizimi joriy etiladigan OTM lar soni 2 tadan 2030 yilgacha 85 tagacha yetkazilishi rejalashtirilgan. 2020-2021 yillarda 25ta OTM kredit-

modul tizimiga o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Kredit-modul tizimining ijobiy jihatlaridan biri o'qituvchidan ham, talabandan ham mas'uliyatli bo'lishni talab qilishidir. Talabalarda oliygohga kirgan talaba albatta uni tamomlaydi, degan tushuncha bo'lmasligi, aks holda ish beruvchining bitiruvchiga bo'lgan munosabati o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Nodavlat, davlat xususiy sherikchilik asosidagi OTM lar soni hozirda 4 tani tashkil etsa, uni 35 tagacha yetkazish rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 11 iyuldagи «Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida»gi qaroriga asosan, 2020-yil 1-yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqasida o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga 10 ta oliy ta'lim muassasalarini o'tkazildi.

Oliy o'quv yurtlarida to'lov kontrakt asosida o'qish uchun belgilanadigan qabul kvotasining bosqichma-bosqich bekor qilinishi, OTM o'z salohiyati va talabalarga bo'lgan ehtiyojiga qarab pullik asosdagi qabul kvotalarini mustaqil ravishda belgilay boshlashi va talabgor yoshlarga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida qatnashish imkoniyatining yaratilishi universitet va institutlar o'rtaida erkin, sog'lom raqobat vujudga kelishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim muassasalarini talabani o'zida saqlab qolish uchun kurashadi, turli imtiyozlar yaratadi. Bu kabi sog'lom raqobatning kuchayishi esa o'z o'zidan oliy ta'lim muassasasining intellektual kapitalini oshirish, rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishni talab qiladi.

Mamlakat intellektual salohiyati oliy ta'lim muassasalarining ahamiyati yuqori bo'lib, oliy ta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflarni keltiramiz:

- Oliy ta'lim muassasalarini tarkibida ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish (terini qayta iashlash, non va non mahsulotlarini ishlab chiqarish, tikuvchilik sexlari);

- Oliy ta'lim muassasalarini professor-o'qituvchilar keng ko'lamda ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishi bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- professor o'qituvchilarning kasbiy-amaliy salohiyatlarini ishlab chiqarish korxonalariga stajirovkalar yushtirish orqali rivojlantirish;

- iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ish bilan band tajribali mutaxassislarini soatbay o'qituvchi sifatida o'quv jarayoniga jalb etish;

-imkon doirasida har bir kafedraga tegishli jami o'quv soatlaridan kelib chiqib har bir o'qituvchini ma'lum bir ( yoki mazmunan bir biriga yaqin) fanga tor darajada ixtisoslashtirish;

-ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanayotgan va bu ishni sifatlari yakunlay olgan o'qituvchilarni Oliy ta'lim muassasalarini ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib moddiy rag'batlantirish ishlarini yo'lga qo'yish;

-Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion rivojlanish konsepsiyasini rivojlantirish bo'yicha ishlarni faollashtirish;

-ilmiy tadqiqot ishlarini tijoratlashtirishdan professor-o'qituvchilar manfaatdorligini oshirish.

Yuqorida qayd etilgan taklif va tavsiyalardan amalda foydalanish Oliy ta'lim muassasalarini intellektual kapitalining samarali shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson intellektual salohiyatini rivojlantirish orqali undagi insoniy kapitalni yuzaga chiqarish bo'lib hisoblanadi. Zero, insoniy kapitalga ega bo'lgan shaxsnинг daromadi ko'payadi, yashash sharoitlari yaxshilanadi. Sifatli inson kapitaliga ega bo'lgan korxonalar yuqori foyda bilan ta'minlanadi, raqobat kurashida yutib chiqadi. Bu kabi yuqori intellektual kapitalga ega bo'lgan fuqarolar va korxonalariga ega bo'lgan davlat iqtisodiyoti esa har tomonlama rivojlanadi, o'sadi.

---

**Oliy ta'lim muassasalarini  
talabani o'zida saqlab qolish  
uchun kurashadi, turli  
imtiyozlar yaratadi. Bu kabi  
sog'lom raqobatning  
kuchayishi esa o'z o'zidan  
oliy ta'lim  
muassasasining  
intellektual kapitalini  
oshirish, rivojlantirish  
bo'yicha chora-tadbirlar  
ko'rishini talab  
qiladi.**

---

### **Manba va adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-3913188>
2. Amir Temur "Temur tuzuklari" Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 184 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 23.12.2017. <http://dd.gov.uz/uz/news/534>
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demogra phy-2>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi 06.01.2021. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>
6. [mf.uz ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari](https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2)
7. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rGANISH bo'yicha ilmiy risola. Toshkent "Manaviyat" 2017 yil 324 bet
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demogra phy-2>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 06.01.2021. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 06.01.2021. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>
11. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social- protection-2>
13. Buzrukhanov S. Oliy ta'lim investitsiya muhitining rivojida tadbirdorlik marketingi // Jamiyat va boshqaruv. – 2010. – 2. – 75-76-betlar.
14. Akad.Q.X.Abduraxmonov. Innovatsion iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlashda inson kapitalining ahamiyati.O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining yangi bosqichida inson omili va manfaatlari:Xalqaro amaliyot va O'zbekiston tajribasi.Ilimy amaliy konferensiya materiallari to'plami.20.09.2020.
15. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 26.01.2020

16. Карпенко М. Новая роль высшего образования в эпоху развития инновационной экономики, глобализации и депопуляции // Знание. Понимание. Умение, 2007. № 4. – С. 31-39.

17. O'zbekistonda ta'lim 2015-2018 yil. Statistik to'plam. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

### **O'zbekiston Respublikasining intellektual salohiyati uni rivojlantirish istiqbollari**

**Gulnora Boboeva,**  
Buxoro davlat universiteti  
Iqtisodiyot kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada O'zbekiston Respublikasi intellektual salohiyati ko'rsatkichlari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** intellektual salohiyat, oliy ta'lim, inson kapitali, kredit modul tizim, bakalavriatura, magistratura.

### **Intellectual potential of the Republic of Uzbekistan and prospects for its development**

**Gulnora Boboeva,**  
teacher, department of economics,  
Bukhara state university

**Abstract:** the article describes the indicators of the intellectual potential of the Republic of Uzbekistan and the ongoing reforms in this area.

**Keywords:** intellectual potential, higher education, human capital, credit module system, bachelor's degree, master's degree.

### **Интеллектуальный потенциал Республики Узбекистан и перспективы его развития**

**Гулнара Бобоева,**  
преподаватель кафедры экономики,  
Бухарский государственный университет

**Аннотация:** в статье описаны показатели интеллектуального потенциала Республики Узбекистан и проводимые реформы в этой сфере.

**Ключевые слова:** интеллектуальный потенциал, высшее образование, человеческий капитал, кредитно - модульная система, бакалавриатура, магистратура.